O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2025 yil “22” dekabr

“TASDIQLAYMAN”
KDPI rektori
_____ Sh.R.Urakov
2025 yil

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Kattaqo‘rg‘on – 2025

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi va o‘quv rejasi asosida ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR:

1. J.S.Quchqorov. O‘zbek tili va gumanitar fanlar kaferasi mudiri, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

2. N.R.Jalilova O‘zbek tili va gumanitar fanlar kaferasi kaferasi Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

3. S.S.Axmedov O‘zbek tili va gumanitar fanlar kaferasi assistenti

TAQRIZCHILAR:

1. B.Muhiddinova Sharaf Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, Filologiya fanlari doktori(DSc),.

2. O‘.Oripov Navoiy davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Mazkur dastur “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi Kengashining 2025-yil _____ -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **J.Quchqorov**

Mazkur dastur “Filologiya va ijtimoiy fanlar” fakulteti Kengashining 2025-yil _____-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kengash raisi: **G‘.Pirnazarov**

KIRISH

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga “bakalavr” malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun dastur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi 5 ta fan asosida shakllantirilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan mazmun quyida batafsil bayon etiladi.

Hozirgi o‘zbek tili fani bo‘yicha

Hozirgi o‘zbek tili milliy o‘zbek tilining muayyan sifatiy me’yorlarga ega bo‘lgan, sayqallangan, yuqori bosqichda rivojlangan oliy shakli hisoblanadi. Ushbu kurs doirasida hozirgi o‘zbek tilining og‘zaki va yozma shakllari hamda ularning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillarning roli chuqur o‘rganiladi.

Fanni o‘zlashtirish mobaynida o‘zbek tili lahja, dialekt va shevalari, hozirgi o‘zbek tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari va hozirgi o‘zbek tilining shakllanishida etakchi shevalarning ishtiroki ham o‘rganiladi.

Fanning maqsad va vazifalari. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dealektal asoslari. O‘zbek tili va uning tarixi, o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti, qadimgi turkiy tilshunoslik, eski turkiy tilshunoslik, formal o‘zbek tilshunosligi, substansial o‘zbek tilshunosligi.

O‘zbek xalqining shakllanishi, o‘zbek etnonimi, turkiy xalq, turk so‘zi, sort atamasi, o‘zbek so‘zi, chig‘atoy tili, adabiy til, milliy til, «Qutadg‘u bilig», «Devonu lug‘oti-t- turk», o‘zbek tili tarixi, o‘zbek tili taraqqiyot bosqichlari. O‘zbek tili tarixini davrlashtirish.

Ilmiy bilish, grammatik shakl, zohiriy belgi, empirik yondashuv, UMIS va AHVO, WPm, lison, nutq, til, me’yor, fonema, morfema, leksema, qolip, nomema, semema, sema, so‘z, qo‘shimcha kabu birliklar mohiyati, farqli xususiyatlari va o‘zaro munosabati.

Paradigma, paradigmatik munosabat, pog‘onali munosabat, partonimik munosabat, giponimik munosabat, totonim, giperonim, ziddiyat, a’zo, belgi, bir o‘lchamli ziddiyat, ko‘p o‘lchamli ziddiyat, ajralgan ziddiyat, muntazam (proporsional) ziddiyat, noto‘liq (privativ) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, ikki a’zoli (binar) va ko‘p a’zoli ziddiyat, doimiy va mo‘tadillashgan ziddiyat, tasnif masalalari.

Fonetika, nutq tovushlari va ularning tasnifi, fonologiya, ziddiyat, variantlashuv, fonetikaning to‘rt aspekti fizik (akustik), fiziologik (artikulyatsion) perseptiv (eshitib his qilish) hamda vazifaviy xususiyatlar, nutqiy variant, fonemalarning belgilari.

Fonetik jarayon haqida ma'lumot. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar: assimilyasiya, akkomodasiya, ularning turlari. Pozision omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar: reduksiya, ochiq bo'g'indagi unlilarda sifat o'zgarishi, ayrim jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishi. Hozirgi o'zbek tilida urg'u va bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi. Bo'g'in (sillabema). Bo'g'in haqida umumiy tushuncha. Bo'g'in tuzilishi. Bo'g'in markazi. Bo'g'in tiplari.Aksentuatsiya va intonatsiya. Aksentuatsiyaning urg'ular tizimi ekanligi. Urg'u tiplari. So'z urg'usi, uning fonetik tabiatiga, o'rniga va harakat qilish belgisiga ko'ra turlari. Sintagma urg'usi. Ayriuv urg'usi, uning turlari. Intonatsiya, uning prosodik elementlari.

Grafika, til va yozuvning o'zaro munosabati, o'zbek yozuvlari tarixi, orfoepiya va orfografiya munosabati, imlo qoidalari, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-an"anaviy yozuv, farqlash tamoyili, shakliy tamoyili.

Leksikologiya haqida tushuncha, lesikologiyaning turlari, leksema va so'z, leksemaning ongda paradigmatik va sintagmatik munosabat asosida yashashi, yasama so'zning leksemalashuvi. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni, polisemantiklik, hosila ma'noning yuzaga kelish yo'llari.

O'zbek tili lug'at tarkibining tarixiy taraqqiyoti, o'z va o'zlashgan qatlam, leksik sathdagi tarixiy o'zgarishlar.

Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika, dialektal leksika, terminologgik leksika, noadabiy leksika, jargon, argo.

Bo'yoqsiz leksika va uning xususiyatlari, bo'yoqdor leksika, ijobiy bo'yoqdor leksika va salbiy bo'yoqdor leksika, uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi, uslubiy betaraf leksika, uslubiy xoslangan leksika.

Barqaror birikmalar va ularning turlari, frazeologizmlar, maqol va matallar, hikmatli so'zlar, frazeologiya haqida tushuncha, frazeologizmlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, frazeologizmning semantik strukturasi, frazeologizmlarda semantik munosabat. Leksikografiya, lug'atlar va ularning turlari, umumiy ensiklopedik lug'atlar, maxsus ensiklopedik lug'atlar, imlo lug'ati, maxsus filologik lug'atlar, chastotali lug'atlar, o'zbek lug'atshunosligi taraqqiyoti.

Mazkur mavzuda asosiy e`tibor so`zning morfem tuzilishi, so`z va morfema, o`zak va negiz, affiksal morfemalarning asosiy xususiyatlari, so`zning morfematik tahliliga qaratiladi. Morfem lug`at to`g`risida ma`lumot beriladi va u bilan ishlash ko`nikmasi shakllantiriladi. Mohiyatan morfema vazifasida qo`llanuvchi so`zlar tahlil etiladi.

Affikslar fonetikasi. Affikslarning kelib chiqishi. Prefikslar. Affiksoidlar. Derivatsion sinonimiya. Morfem vositalar. Affikslarda shakl va ma'no munosabati: affiksal omonimiya, affiksal sinonimiya, affiksal polisemiya. So`zning morfem tarkibidagi o`zgarishlar. Soddalanish, morfologik qayta bo`linish. So`zning morfemalarga ajralish chegarasining morfologik jihatdan qayta bo`linishi. So`zlashuv nutqi ta'sirida soddalanish hodisasi. So`zning tovush tarkibidagi fonetik o`zgarishi. Yasama so`zlarning tub so`zga aylanishi.

Tarixiy va sinxron derivatsiya. So`z yasash qolipi haqida. So'z yasalishi. So'z yasalishida affikslarning o'rni, So'z yasash asoslari. So'z yasalish strukturasi. So'z yasalishida qarindosh so'zlarning bog'liqligi. So'z yasash asoslari. Tub va yasama leksemalar. Qo'shma leksemalar. So'zshaklda leksik ma'no va grammatik ma'no. Yasash asosi, yasovchi affiks. So'z hosil qilish usullari.

Affiksatsiya usuli bilan ot, sifat, fe'l, ravish yasalishi, Kompozitsiya usuli bilan so'z turkumlarining yasalishi. Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalishi.

Grammatika va uning vazifasi. Morfologiya va sintaksis, ularning o'zaro munosabati. Grammatik qonuniyatlar. Tilning grammatik qurilishi. Morfologiyaning sintaksisdan farqi. Grammatikaning tarkibiy qismlari. Grammatika va milliylik, milliy mafkura. So`z va tushuncha. Grammatik ma`no. Grammatik shakl. Grammatik kategoriyalar.

Turkumlanish. So'z turkumlari to'g'risida yangicha qarashlar. Mustaqil, oraliq, yordamchi so'z turkumlari. So'zning morfologik belgilari. Leksik va grammatik ma'noga ega bo'lgan so'zlar. Mustaqil so'zlarning gap bo'lagi vazifasida kelishi. Bir so'z turkumi o'rnida boshqa so'z turkumining qo'llanilishi. Mustaqil so'zlarning so'z yasash, shakl hosil qilish, so'z o'zgartirish xususiyatlariga ega bo'lishi. Oraliq va yordamchi so'zlarning mustaqil so'zlardan farqi.

Fe'lning ma'nosi va grammatik belgilari. Fe'lning grammatik kategoriyalari. Fe'llarda bo'lishlilik, bo'lishsizlik. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llarda nisbat kategoriyasi. Fe'llarda mayl kategoriyasi.

Fe'lning o'tgan zamon shakllari: aniq o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon davom, o'tgan zamon eshitganlik shakllari; fe'lning hozirgi zamon shakllari; kelasi zamon shakllari; fe'llarda shaxs-son kategoriyasi; shaxs-son shakllarining bir-biriga ko'chishi.

Fe'lning funksional shakllari: harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh. Fe'lning modal shakllari. Harakatning holatini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi formalar. Sintetik va analitik formalar. Harakatning takroriyligini, davomiyligini ifodalovchi forma. Ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'l.

Otning ma'nosi va grammatik belgilari. Otlarda son va egalik kategoriyalari. Atoqli va turdosh, konkret va mavhum, yakka va jamlovchi otlar. Otning grammatik kategoriyalari. Son kategoriyasi. Birlik va ko'plik shakldagi otlar. Morfologik va leksik-semantik usul bilan ko'plikning ifodalanishi. Faqat birlik shakldagi otlar. Otlarda egalik kategoriyasi. Egalik affiksi qo'shilganda so'z tarkibidagi o'zgarishlar. Egalik kategoriyasida qarashlilik, mansublik, ma'lum shaxsga tegishlilik.

Otlarda shakl yasalishi: sintetik, analitik, juft va takroriy shakllar. Kichraytirish, erkalash, qarashlilik, o'rin belgisi, chegara shakli. Ot turkumida leksema yasash va leksema tuzish. Otlarda kelishik kategoriyasi.

Otlarda shakl yasalishi: sintetik, analitik, juft va takroriy shakllar. Kichraytirish, erkalash, qarashlilik, o'rin belgisi, chegara shakli. Ot turkumida leksema yasash va leksema tuzish.

Sifatning ma'nosi va grammatik belgilari. Sifatlarda daraja kategoriyasi: ozaytirma, orttirma daraja. Erkalash shakli. Juft va takroriy shakl. Sifatning otga ko'chishi va otlashuvi. Sifatlarda modal shakl. Substantizatsiya.

Sonning ma'nosi va grammatik belgilari. Sonning ma'no jihatdan turlari: miqdor va tartib sonlar. Miqdor sonlarning turlari. Numerativ (hisob) so'zlar. Sonning tuzilish jihatdan turlari. Sonlarning otlashuvi.

Olmoshning ma'nosi va grammatik belgilari. Olmoshning boshqa so'z turkumi o'rnida kelishi. Olmoshning turlari. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari.

Boshqa so'z turkumiga old so'zlarning olmoshga ko'chishi.

Ravishning ma'nosi va grammatik belgilari. Ravishning ma'no turlari; ravishlarda shakl yasalishi. Boshqa so'z turkumlarining ravishga ko'chishi. Ravishlarda orttirma va intensiv daraja.

Ko'makchi haqida tushuncha. Sof ko'makchi va vazifaviy ko'makchi. Yuklamalar haqida umumiy tushuncha. Yuklamalarning turlari.

Bog'lovchi haqida umumiy tushuncha. Teng bog'lovchilar; ergashtiruvchi bog'lovchilar. Boshqa so'z turkumiga oid so'zlarning bog'lovchi vazifasida qo'llanilishi.

Modallik va modal so'z. Modal so'z va modal ma'noli so'z. Modal so'zlarning ma'no turlari. Modal so'zlarning sintaktik vazifasi. Modal so'zlarning mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga munosabati. Modallik va modal so'zlarga yangicha munosabatlar. Undov. Undovlarning ma'noga ko'ra turlari: emotsional undovlar, imperativ undovlar. Taqlidiy so'zlar; tovushga taqlid so'zlar; predrnetlar tovushiga taqlid so'zlar; turli hayvon va jonivorlar ovoziga, jonsiz tovushlarga taqlid so'zlar, holat yoli obrazga taqlid so'zlar.

Grammatika haqida umumiy ma'lumot. Grammatikaning tarkibiy qismlari. Grammatik ma'no va grammatik shakl. Grammatik va leksik ma'no munosabati.Grammatik ma'no ifodalovchi usullar. Grammatik shakl va uning turlari.Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turlari.

Sintaksis haqida umumiy tushuncha. Sintaksis va uning tadqiq manbai. Sintaksisning morfologiya bilan aloqasi. Sintaktik birliklar. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ)ning asosiy turlari, uni ajratish usullari. Lug'aviy va sintaktik valentlik.

Lisoniy sintaktik qolipning shakliy tomoni. Lisoniy sintaktik qolipning mazmuniy tomoni. Valentlik haqida tushuncha. Lug'aviy valentlik. Sintaktik valentlik. Grammatik shakl valentligi. Sintaktik aloqa. Sintaktik aloqa komponentlarining birikish usullari. Tobe aloqa komponentlarining birikish usullari.

So'z birikmalari tasnifi. So'z birikmasi va so'z. So'z birikmasi va ibora. So'z birikmasida hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi so'z. So'z birikmasida bog'lanish usuli. So'z birikmasida bog'lanish omili. Ma'noviy omil. Shakliy omil. Joylashuv omili. Hokim a'zoning ifodalanishiga ko'ra So'z birikmasining turlari. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari. So'z birikmasi zanjiri. So'z birikmasi va sintagma. So'z birikmasi lisoniy sath qurilishini tiklash va uning voqelanishi. Lisoniy sath qurilishini o'qish va yozish qoidalari. Turg'un so'z birikmasi va frazemalarning lisoniy sath qurilishidagi o'rni.

So'z – gap to'plamini ajratish tamoyillari. Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi. So'z-gapning o'ziga xos g'ayrioddiy lug'aviy ma'noga egaligi. So'z-gap tasnifi. So'z-gapning sintaktik xususiyati. Nutqiy gapning belgilari. Gapning shakllanishida leksik omil. Gapning shakllanishida morfologik omil. Gapni shakllantirishda ohangning roli.

Gap lisoniy sathda. Ifoda maqsadi. Modal ma'nolar. Gap bo'laklarining ifodalanish xususiyatlari. Murakkablashtiruvchi vositalar. Ajratilgan bo'lak. Uyushiq bo'lak.

Kesimning tuslovchi fe'l leksema shakl bilan ifodalanishi. Kesimning fe'ldan boshqa leksema shakllar bilan ifodalanishi. Kesimning tuslovchili birikma shakl va ism birikmasi shakli bilan ifodalanishi.

Kesimning asli gapning grammatik shakllanishini ta'minlaydigan grammatik kategoriyalar tasdiq – inkor, mayl, zamon, shaxs-son, kategoriyalari.

Ega haqida umumiy ma'lumot. Ega va kesim munosabati. Egali va egasiz gaplar. Kesimdagi Wga bog'liq holda ega ifodalanishining zarurligi. Yig`iq va yoyiq gaplar. Eganing uyushiq qator bilan ifodalanishi. Sifatlovchi uyushiq qator, qaratuvchining uyushiq qator, to`ldiruvchili uyushiq qator, hollovchining uyushiq qator, kesimning uyushiq qator bilan ifodalanishi. Sodda gapning tarkibiy qismlari. Gap markazi. Gap kengaytiruvchisi. Modal gap kengaytiruvchi. So'z kengaytiruvchilari.

Grammatik shakllangan gap. To`ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositali va vositasiz to`ldiruvchilar. Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchi. Izohlovchi. Hol va uning ifodalanishi. Holning turlari.

Ajratilgan sifatlovchi. Ajratilgan ega. Ajratilgan hol. Ajratilgan to'ldiruvchi. Sodda gapda teng bog'lanish. Uyushgan so'zshakl. Uyushiq kesimning o'ziga xos xususiyati.

Gapning kirish va kiritma kengaytiruvchilari. Uyushgan gap. Uyushish haqida. [Pm] uyushtiruvchisi vosita sifatida. (WP_m) uyushtiruvchi vosita sifatida. Parsellyativ va Ilovali qurilmalar.

Darak gap. So'roq gap. Buyruq gap. Nutqiy gapning emotsionallikka ko'ra tasnifi. Gapning axborot vazifasi nuqtai nazaridan tuzilishi. Prosodik aktuallashtiruvchi vosita. Leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vosita. Kommunikativ bo'linmas gap. Gapning nutqiy hodisa sifatidagi asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyati. Nutqda gaplarning turli-tumanligi. Gaplarning ifoda maqsadi. Modal ma'nolari. Gap bo'laklarining ifodalanishi. Murakkablashtiruvchi vositalar.

Qo'shma gap tasnifi asoslari. Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra tasnifi. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifi. Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari. Qo'shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko'ra tasnifi.
Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Umumiy o'rta ta'lim darsliklari mazmuni fani bo'yicha:

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf "Ona tili" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. 5-sinf "Ona tili" darsligida berilgan grammatik mavzular mazmuni va matnlar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf "Ona tili" darsligining mazmuniy mundarijasi. 5-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash.Nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u; so'zning atash ma'nosi, o'z va ovzlashgan qatlam, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, atamalar, ibora mavzulari yuzasidan berilgan mashq va topshiriqlar ustida ishlash, ajratilgan o'quv soatlarini tahlil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinf "Ona tili" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. 6-sinf "Ona tili" darsligida berilgan grammatik mavzular mazmuni va matnlar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinf "Ona

tili" darsligining mazmuniy mundarijasi. 6-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash. Asos va qo'shimchalar, mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravish mavzulari yuzasidan berilgan o'quv topshiriqlar hamda matnlarni tahlil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf "Ona tili" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. 7-sinf "Ona tili" darsligida berilgan grammatik mavzular mazmuni va matnlar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf "Ona tili" darsligining mazmuniy mundarijasi. 7-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash. Olmosh, yordamchi so'zlar: bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar; alohida olingan so'zlar: modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar mavzulari yuzasidan berilgan o'quv topshiriqlar hamda matnlarni tahlil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinf "Ona tili" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. 8-sinf "Ona tili" darsligida berilgan grammatik mavzular mazmuni va matnlar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinf "Ona tili" darsligining mazmuniy mundarijasi. 8-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash. So'z birikmalari, sodda gaplar (turlari, gap bo'laklari, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalma, kiritma) mavzulari yuzasidan berilgan o'quv topshiriqlar hamda matnlarni tahlil qilish.

"Ona tili" darsliklarida berilgan nazorat darslari shakli va mazmuni. Nazorat turlari: diktant, insho, bayon, esse, og'zaki nutq uchun ajratilgan o'quv soatlari, nazorat turlarining shakli va mazmunini tahlil qilish, xatolar ustida ishlashni to'g'ri tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot" darsliklarida nazorat ishlarining shakli va mazmuni. Ifodali o'qish, insho, taasssurot yozish, test yuzasidan bilim-ko'nikmalar hosil qilish5-,6-,7-,8-sinf "Adabiyot" darsliklarida "Xaql og'zaki ijodi" namunalarining o'qitilishi. Maqol, topishmoq, ertak, doston janrlari haqida.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf "Adabiyot" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinf "Adabiyot" darsligining mazmuniy mundarijasi. 5-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinf "Adabiyot" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinf "Adabiyot" darsligining mazmuniy mundarijasi. 6-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf "Adabiyot" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf "Adabiyot" darsligining mazmuniy mundarijasi. 7-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinf "Adabiyot" darsligi va metodik qo'llanmasi tuzilishi va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinf "Adabiyot" darsligining mazmuniy mundarijasi. 8-sinf metodik qo'llanmasi ustida ishlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot" darsliklarida nazorat ishlarining shakli va mazmuni. Ifodali o'qish, insho, taasssurot yozish, test yuzasidan bilim-ko'nikmalar hosil qilish.

Navoiyshunoslik fani bo'yicha:

Navoiyshunoslikka kirish. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini o'rganish manbalari. Navoiyshunoslikka kirish. Navoiyshunoslik bosqichlari. Shoir hayoti va ijodini o'rganishda muallif asarlarining ahamiyati. Navoiyshunoslikning ilk manbalari. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Faxriy Hirotiyning "Latoifnoma", Som Mirzoning "Tuhfayi Somiy", Zayniddin Vosifiyning "Badoyi' ul-vaqoe'" asarlari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar.

She'riyatdagi ilk qadamlar. "Ilk devon"ning yaratilishi va o'rganilishi. «Badoyi' ul-bidoya» va "Navodir un-nihoya» devonlari va ularning tadqiqi. Debochada devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" va «Devoni Foniy»ning janr xususiyatlari, mavzu rang-barangligi.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining o'rganilishi, badiiyati, janrlar rang-barangligi. "Xazoyin ul-maoniy" –lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilishi va o'rganilish tarixi., tarkibiy tuzilishi. Kulliyotdagi janrlar tartibi. "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-bidoya", "Favoyid ul-kibar" devonlari, mavzular doirasi, g'oyalar va timsollar tizimi.

Xamsanavislik an'anasi, Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi. "Hayrat ul-abror" Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy "Xamsa" sifatida."Hayrat ul-abror" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi, maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.

Alisher Navoiy dostonlarida an'ana va o'ziga xoslik. "Farhod va Shirin" dostonining timsollar olami. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. "Layli va Majnun" dostoni timsollar tizimi. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzubi solik timsoli. Dostondagi boshqa timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari. "Sabba'i sayyor" dagi hikoyalar tahlili. Dostonning badiiy xususiyati. "Saddi Iskandariy" –falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Alisher Navoiyning ilmiy merosi. Alisher Navoiy – adabiyotshunos. «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirlar talqini. «Mezon ul-avzon» aruz nazariyasiga bag'ishlangan asar. "Mufradot"da muammo janriga doir masalalarning yoritilishi. Tilshunoslik asarlari. «Muhokamat ul-lug'atayn»da ikki til mubohasasi. «Sab'atu abhur» va "Risolayi tiyr andoxtan" asarlariga munosabat.

Navoiy poetikasi haqida umumiy ma'lumot. Navoiy poetikasi o'zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosaabat.

Navoiy she'riyati va janr poetikasi. Navoiy asarlar badiiyati. Navoiyning

lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar. “Xazoyin ul-0maoniy” kulliyotining janr xususiyatlari. G‘azal va mustazod janrlari. Musammatning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibband, tarjibband, soqiynoma va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiy, tuyuq, qit’a va fardlar.

“Devoni foniy” poetikasi. G‘azallarning yaratilish xususiyatlari. Musaddas va tarkibband janrlari. “Fusuli arbaa”da to‘rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli. “Sittai zaruriya” qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi. Ta'rix va lug‘z janrlarining badiiyati. Nasriy asarlar poetikasi. “Mahbub ul-qulub” saj'ning betakror namunasi sifatida. “Munojot” asari poetikasi.

Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari. “Badoe' ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlarida qo‘llanilgan bahrlar. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko‘rsatkichlari. Ruboiy vaznlari. Axrab va axram shajarasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o‘rni. Axram shajarasiga xos xususiyatlar. “Mezon ul-avzon”da aruz masalalari.

Navoiy “Xamsa”sining vazn xususiyatlari.

Vazn va ritmik variatsiyalar. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o‘rni. Ritmik urg‘u va “Xamsa” dostonlari.

Mumtoz poetikada ilmi badi’. Navoiy asarlarida ilmi’ badi’ga doir qarashlar. Mumtoz she’riy san’atlar tasnifi. Badiiy san’atlarning Navoiy lirihasidagi o‘rni. Lafziy san’atlar. M a’naviy va mushtarak san’atlar.

G‘azallarning yaratilish davri. Qaysi devonga mansubligi, mavzusi, murakkab so‘zlar lug‘ati, baytlarning nasriy bayoni,shohbaytlar talqini, g‘azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.

Qit’alarni sharhlash mezonlari. Mavzu mundarijasiga ko‘ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta’limiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit’alar. Qit’alarning sarlavhalari va mazmun-mohiyati o‘rtasidagi uyg‘unlik.

“Lison ut-tayr” – irfoniy doston namunasi sifatida.

Dostonning tarkibiy tuzilishi. Muqaddimaviy boblarda doston mundarijasiga doir qa- rashlar. Doston tarkibidagi hikoyatlar. “Shayx San’on hikoyati”. Dostondagi yetti vodiy tavsifi. Ramziy timsollar tahlili.

Alisher Navoiy – adabiyotshunos. «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirlar talqini. «Mezon ul-avzon» aruz nazariyasiga bag‘ishlangan asar. “Mufradot”da muammo janriga doir masalalarning yoritilishi. Tilshunoslik asarlari. «Muhokamat ul-lug‘atayn»da ikki til mubohasasi. «Sab’atu abhur» va “Risolayi tiyr andoxtan” asarlariga munosabat.

“Arbain”da sahih hadislar tarjima va talqini. “Vaqfiya”da Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog’liq masalalar. “Nazm ul-javohir” ruboiylar to’plami Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asari tarjimasi sifatida. “Siroj ul-muslimin” asarida islom diniga oid hukmlarning ifodalanishi. “M unojot”da tavba-tazarru va Haqqa bo’lgan ishq ohang- lari. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida tasavvuf masalalari. Navoiy yodnomalari – memuar janrining yuksak namunasi. “Munshaot” asarining turkiy epistolyar janri taraqqiyo- tidagi o‘rni. «Mahbub ul-qulub”da ma’rifiy-ta’limiy masalalarning yoritilishi. Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.

Navoiy poetikasi o‘zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning “e'joz maqomida” ekanligi. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining janr xususiyatlari. G‘azal va mustazod janrlari. Musammatlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibband, tarji'band, soqiynoma va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.

“Mahbub ul-qulub” asarining g‘oyasi, kompozitsiyasi, badiiyati. “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid hasan Ardasher”, “holoti Pahlovon Muhammad” asarlarining g‘oyasi, hikoyalar tahlili. “Munshaot” ning tuzilishi va badiiyati.

Alisher Navoiygacha turkiy she’riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislkar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari. “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Devoniy Foniy” devonidagi vazn xususiyatlari.

Mumtoz poetikada ilmi badi’. Navoiy asarlarida ilmi’ badi’ga doir qarashlar. Mumtoz she’riy san’atlar tasnifi. Badiiy san’atlarning Navoiy lirihasidagi o‘rni. Lafziy san’atlar. M a’naviy va mushtarak san’atlar.

Mumtoz qofiya haqida umumiy ma’lumot. Navoiyning qofiyadan foydalanish mahorati. Navoiy ijodida qofiya turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalar. Navoiy she’riyatida qofiyaning tuzilishiga ko‘ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar. Navoiy ijodida radif va hojib.

Alisher Navoiyning ijodiga mustaqillik yillarida munosabat. Navoiyshunos olimlarning ilmiy merosi bilan tanishish. Suyuma G‘aniyeva, Aziz Qayumov, Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova , Olimjon Davlatov, Ibrohim Haqqul, Erkin Vohidov izlanishlari va Navoiyshunoslik fani tarqattiyotiga qo‘shgan hissalari. Navoiyshunoslikka bag‘ishlab o‘tkaziladigan konferensiyalar. Navoiy nomini sharaflash.

O‘zbek adabiyoti tarixi fani bo‘yicha:

Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari. Yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo mif va afsonalariga oid ma`lumotlar. "Avesto" adabiy manba sifatida. "Avesto"ning o`rganilishi tarixi. Zardusht shaxsi haqidagi ma`lumotlar. "Avesto" va badiiy adabiyot.

Urxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida. Urxun-Enasoy yodgorliklarining yaratilishi,o`rganilishi, janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. To`nyuquq, Bilga xoqon, Kultigin bitiglari. Ularda shaxs va millat erki. Irq bitig - adabiy manba sifatida. Uyg‘ur-turk yozuvidagi yodgorliklar.

Mahmud Koshg‘ariy va uning "Devonu lug‘otit-turk" asaridagi adabiy

parchalarning janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Asardagi afsona, rivoyat ("sav"), to`rtlik shaklidagi she`rlar va xalq qo`shiqlari. qadimgi turk moniylik adabiyoti. Buddaviylik mazmunidagi turkiy adabiyot. "Oltin yoruq" dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

"O`g‘uznoma" dostoni. "O`g‘uznoma"da qadimgi turkiy mifologiyaning aks etganligi. Dostondagi skiflar madaniyatiga oid unsurlar. Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome` ut-tavorix" asarida afsona va rivoyatlar.

IX-XII asrlar adabiyoti. Davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy xususiyatlaari. Markaziy Osiyoda arab va fors-tojik tilidagi adabiyot. Abu Mansur as-Saolibiy va uning "Yatimat ud-daqr" asari ilk tazkira sifatida. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino ijodi va adabiyot.

"Odam ush-shuaro" - Ro`dakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nosir Xusrav, Umar Xayyom kabi fors-tojik tilidagi adabiyot namoyandalari va ularning o`zbek adabiyoti rivojiga ta`siri.

Turkiy tildagi yozma adabiyotning shakllanish omillari. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o`rganish manbalari. "Qutadg‘u bilig" dostonining topilishi, o`rganilishi, qo`lyozmalari, nashrlari. Asar kompozitsiyasi, timsollarning ramziy mohiyati. Asarda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar, muallifning axloqiy va estetik qarashlari. Dostondagi she`riy shakllar: masnaviy, qasida, to`rtlik. Asarning bugungi kun uchun ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o`rganish manbalari. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining o`rganilishi, nashrlari va bu boradagi muammolar. Asardagi muqaddima, asosiy boblar va xotimalarning o`ziga xos kompozitsiyasi. Asarda ko`tarilgan axloqiy-falsafiy masalalar va ularga munosabat. Badiiy adabiyot va diniy manbalar (asarda oyat va hadislarning badiiy talqini). Aruz va mutaqorib bahri haqida tushuncha.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti haqida tushuncha. Ahmad Yassaviy hayoti, "Devoni hikmat" to`plamining mazmun va g‘oyaviy mundarijasi, janr xususiyatlari, badiiyati. Yassaviya tariqati va o`zbek adabiyoti.

Chingizxon istilosi, uning sabab va oqibatlari. Mo`g‘ullar istilosi davrida muhojirlik adabiyoti. Badriddin Chochiy, Muhammad Avfiy Buxoriy va Pahlavon Maqmud ijodi.

Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o`rganilish tarixi. "Qisasi Rabg‘uziy" ("qisas ul-anbiyo") - o`zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Rabg‘uziy va turkiy adabiyotda lirik janrlar taraqqiyoti.

Noma janri va uning manbalari. Fors adabiyotidagi noma janrining o`zbek adabiyotiga ta`siri. Shoir Xorazmiy haqidagi ma`lumotlar. "Muhabbatnoma" asarining o`rganilishi, nashrlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Noma janrining XV asrdagi taraqqiyoti: Xo`jandiy, Yusuf Amiriy, Said Ahmad ibn Mironshoh va Said Qosimiy nomalari. Hazaj bahri haqida tushuncha. Qit`a, fard, soqiynoma, munojot janrlari haqida tushuncha.

Munozara janri va uning o`zbek adabiyotidagi namunalari.

O`zbek mumtoz adabiyotida badiiy tarjimalar. Nizomiy Ganjaviy va Sa`diy Sheroziy asarlarining ijodiy tarjimalari.

Shoir Qutb hayoti va ijodining manbalari. "Xusrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari, kompozitsiyasi va syujeti.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. "Guliston bit-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g‘oya, ko`tarilgan masalalar.

XV asrda epik she`riyat va doston janri taraqqiyoti. Durbek haqidagi munozaralar. "Yusuf va Zulayho" dostonining o`rganilishi, syujeti, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Maxzan ul-asror" dostonining kompozitsiyasi. Asarda tarjima va ijodiy o`ziga xoslik. "Gul va Navro`z" dostoni muallifi masalasidagi munozaralar va ularning yechimi. Asar syujeti, obrazlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

XV asrda lirik she`riyat taraqqiyoti. Atoyi ijodiy merosining o`rganilish tarixi. Atoyi "Devon"ining o`ziga xos xususiyatlari. G‘azal haqida tushuncha, Atoyi g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Sakkokiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi. Adabiy merosi. Qasida haqida tushuncha, Sakkokiy qasidalari.

Gadoiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy va Jomiy. Lutfiy lirikasi manbalari, o`rganilishi. Shoir she`riyatining janr xususiyatlari. Lutfiy g‘azal va to`rtliklarining badiiy xususiyatlari. Ruboiy va tuyuq janrlari haqida tushuncha.

Sulton Husayn Boyqaro - Husayniy lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Davrning tarixiy sharoiti, madaniy hayoti va adabiy-ilmiy muhiti. Manbalar va ularni o`rganish tamoyillari. Tasavvuf tariqatlari va adabiy-badiiy jarayon. Tazkiranavislik. "Muzakkiri ahbob"ning ilmiy qimmati. Mutribiy, Maleho Samarqandiy tazkiralari.

Bobur hayoti va ijodi. Bobur hayoti va ijodining o`rganilish tarixi. "Qobul" va "Hind" devonlari, "Xatti Boburiy", "Mubayyin", "Muxtasar", "Risolayi Volidiya", "Boburnoma" haqida umumiy ma`lumot. Bobur she`riyati. Bobur g‘azaliyotining uslubi masalasi. Bobur ruboiylarining o`ziga xosligi.

"Boburnoma" tarixiy-memuar janrining nodir namunasi. Asarning yaratilish tarixi va o`rganilishi. "Boburnoma"da tarixiy shaxslar, ijod va ijod ahliga munosabat.

Hindistonda Bobur an`analari. Muhammad Bayramxon, Komron Mirzo va Gulbadanbegim ijodi haqida ma`lumot.

O`zbekxonlar davrida adabiy hayot. Muhammad Shayboniyxon va Muhammad Soleh adabiy merosi. “Shayboniynoma” – tarixiy-badiiy manba, asar mundarijasi, badiiyati.

Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari. Ubaydiy merosi, she`riy mahorati. Janrlar takomilidagi o`rni.

Xoja va o‘zbek nasriy hikoyachiligi taraqqiyoti. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining janriy tarkibi va mazmun-mundarijasi. “Maqsad ul-atvor” dostoni, an’ana va yangilik. Majlisiy va uning “Qissai Sayfulmuluk” asari, manbalari, mazmuni, xalq og‘zaki ijodigamunosabat.

XVII-XIX asrlarda Buxorodagi adabiy hayot, Turdi Farog‘iy hayot faoliyati, shoir lirikasining janri, mavzu yo‘nalishi, «Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida hajviya» muxammasining g‘oyaviy-badiiy tahlili, Nodirmuhammad, Abdulazizxon, Subhonqulixon, Turdi, Farog‘iy, 18 ta she’r: 12

g‘azal, 5 muxammas, 1 fard, «Subhonqulixon…» muxammasi, 33 beshlik, 165 misra, 1681 yil tarix moddasi, ijtimoiy mavzu, A.Majidiy, H.Yoqubov, A.Hayitmetov, Mujrim-gunohkor, Obid-ibodat qiluvchi taxalluslari, Buxoro tahsili, Mirakxo‘ja, Nazirxo‘ja, «Arzi ahvol» masnaviysi, o‘zbekcha va tojikcha devon, 1960, ijtimoiy mavzu, “Qilur», «Bevafo dunyo», «Topmadim», Navoiy g‘azallariga tazmin, ishq, tasavvufiy jihatlar, «Ko‘rsam», «Qurboning bo‘lay».

Dinîy-didaktik adabiyot, yangicha talqin, So‘fi Olloyor hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi, So‘fi Olloyor hayoti va faoliyati, So‘fi Olloyor masnaviylari, shoir lirikasi, I.Suvonqulov, Sh.Sirojiddinov, B.Valixo‘jayev, I.Haqqul, N.Komilov Kattaqo‘rg‘on, Buxoro, G‘uzor, Katta Vaxshivor, «Maslakul - mutaqqin», «Sabot ul ojizin», «Murod ul - orifin», «Najot ul - tolibon», janr va uslub xususiyatlari, ta’limiy yo‘nalishi, badiiyati. 80 yaqin she’r, “Bayozi Alamkash”, “Ko‘zing ibrat bila och”, 2002, Mashrabshunoslik tarixi, Mashrab hayoti va faoliyati, shoir she’riyatining janr rang-barangligi va mavzu ko‘lami, “Mabdai nur”, “Kimyo” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, mashrabshunoslik, N.Likoshin, G‘.G‘ulom, ikki Mashrab, M.Zokirov, J.Yusupov, Z.Bog‘istoniy «Tazkirai qalandaron», Maleho Samarqandiy “Muzakkir ul-ashob”, lirik meros: g‘azal, mustazod, murabba’lari. Ilohiy va majoziy ishq talqini, poetik mahorati. «Mabdai nur», «Kimyo», «Qissai Mashrab», P.Setoriy, Huvaydo adabiy merosining o‘rganilish tarixi, Huvaydo tarjimai holiga oid ma’lumotlar, shoir she’riyati, “Rohati dil” va “Ibrohim Adham” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Qo‘qon adabiy muhiti, Amiriy hayot faoliyati, ijoning o‘rganish tarixi, Shoir lirikasi, Mohlaroyim Nodira hayoti faoliyati, Nodira devonlarining janr ko‘lami va mavzu rang-barangligi, Maxmur hayoti faoliyati va o‘rganilish manbalari, Shoir adabiy merosi, hajviyalari tahlili, “Hapalak” g‘azali tahlili, Gulxaniy hayoti va ijodi manbalari, o‘rganilish tarixi, Gulxaniy she’riy merosi, 12 g‘azal, 1 qasida, masal janri va «Zarbulmasal» asari, uning kompozitsion xususiyatlari, Uvaysiy hayot faoliyati va o‘rganilishi, shoira lirikasining janr va mavzu rang-barangligi, Uvaysiy qissa va dostonlari, “Qissayi shahzoda Hasan”, “Qissayi shahzoda Husayn”, “Voqeoti Muhammad Alixon”, tasavvufiy mayllar. Muhammad Alixon (Xon) ijodi. Davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy an’analari. Fuzuliy g‘azallariga tazmin va taxmislar. Devonining janriy tarkibi. SHe’riy mahorat qirralari. SHe’riyatining tasavvufiy asoslari

Xiva xonligidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy hayot, tarixnavislik va lug‘atshunoslik: Abulg‘ozi Bahodirxon, Muhammadi Xoksor, Mavlono Kiromiy adabiy merosi, Mavlono Vafo – Vafoiy ijodi, Pahlavonquli Ravnaq hayoti va adabiy merosi, Roqim adabiy merosi, Umar Boqiy va uning qissalari, Nurmuhammad Andalib hayoti va ijodi, Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi, «Husn-u Dil» dostoni va uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, Nishotiy munozaralari, “Qushlar munozarasi” asari, shoir lirikasi, Munisshunoslik tarixi, manbalari, Shermuhammad Munis hayot faoliyati, adabiy merosi, «Munis ul ushshoq» devonining janriy tarkibi, mavzu ko‘lami, «Savodi ta’lim» asari- ilmiy she’riyat namunasi, «Firdavs ul iqbol» asari haqida, Ogahiyshunoslik tarixi, manbalari, Muhammadrizo Ogahiy hayoti va adabiy merosi, «Taviz ul oshiqin» devonining janr tarkibi, mavzu ko‘lami, Ogahiy – tarjimon, tarixiy asarlari.

Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyotining birinchi bosqichi "ilk mustamlakachilik davri adabiyoti" 1865-1905 yillarni o‘z ichiga oladi. Davrning dahshatli voqealarga to‘la kortinasi tarixiy-badiiy asarlarda o‘z ifodasini topdi. Chor Rossiya tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma`naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlari bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib keldi. Bu o‘z navbatida adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishiga ham asos bo‘ldi. Yangicha yo‘nalishdagi hajvchilik maydonga keldi: she`riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi. Toshkent va boshqa markaziy shaharlarda bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, o‘qitish tuzumidagi yangiliklar mustamlakaga o‘lkada yangicha ma`rifatparvarlikning vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Tarjimachilik ancha rivoj topdi: sharq adabiyotidan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Guliston" asarlari tarjimasi bilan barobar rus va Evropa adabiyotidan tarjima qilindi.

O‘zbek tili tarixi fani bo‘yicha:

“O‘zbek tili tarixi” fanining asosiy maqsadi o‘zbek tilining kelib chiqish tarixi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilining xususiyatlari, fonetik-morfologik o‘zgarishlar hamda o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayonini ilmiy-nazariy asosda o‘rgatish; talabada til tarixiga oid mustahkam bilim, tarixiy til materialini tahlil qilish ko‘nikmasi va til taraqqiyotini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida baholay olish malakalarini shakllantirish.

O‘zbek tili tarixi fani manbalari. Grafika.O‘zbek tili tarixini manbalar orqali chuqur tushunish va grafik tizimlarni tahlil qilish. Qadimgi yozuvlarni o‘rganish, tilning yozma shakllari va grafika xususiyatlarini aniqlash. Qadimgi turkiy va eski turkiy adabiy til manbalari. O‘zbek tilining tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlari. Grafik tizimlar: O‘rxun yozuvi, uyg‘ur yozuvi, qadimgi o‘zbek yozuvlari. Grafika va til o‘rtasidagi munosabat, yozuvning tarixiy rivojlanishi.

O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. O‘zbek tilining fonetik tarixini bilish. Assimilyasiya, reduksiya va boshqa fonetik jarayonlarni aniqlash, so‘zlarning tarixiy o‘zgarishini tahlil qilish. Qadimgi turkiy til fonetikasi. Hozirgi o‘zbek tilidagi fonetik jarayonlar. Bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya tarixiy o‘zgarishi. Fonetik variantlar va ularning tarixiy ildizlari.

O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. Ot so‘z turkumi. Ot turkumi morfologiyasini o‘rganish. Otlarning shakl va kelishik kategoriyalarini tahlil qilish, tarixiy ildizlarni aniqlash. Ot turkumining tarixiy shakllari. Son, egalik va kelishik kategoriyalari. Morfem va leksema o‘zgarishlari. Tarixiy morfologik jarayonlar

Sifat, son, olmosh so‘z turkumi. So‘z turkumlarining tarixiy morfologik xususiyatlarini bilish. Sifat, son va olmoshlarning shakllari, darajalari va boshqa so‘z turkumlariga ko‘chishini tahlil qilish. Sifat turkumining tarixiy shakllari va

darajalari. Son turkumining miqdor va tartib sonlari, otlashuvi. Olmoshlar va ularning boshqa turkumlarga ko‘chishi. Morfologik va semantik o‘zgarishlar

Fe’l va ravish so‘z turkumi. Fe’l va ravish tarixiy morfologiyasini bilish. Fe’lning zamon, shaxs, modal kategoriyalarini tahlil qilish, ravishlarning shakl va semantik xususiyatlarini o‘rganish. Fe’llarning tarixiy shakllari va kategoriyalari. Fe’lning hozirgi, o'tgan, kelasi zamon shakllari. Ravish va ularning orttirma, intensiv darajalari. Ko‘makchi fe’llar va to‘liqsiz fe’l.

Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalarning tarixiy taraqqiyoti. Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarni o‘rganish. Ularning tarixiy rivojlanishi va adabiy tildagi ishlatilishini tahlil qilish. Ko‘makchi va vazifaviy ko‘makchi. Bog‘lovchilarning turlari va ishlatilishi. Yuklamalar va ularning grammatik funksiyalari. So‘z turkumlarining bog‘lanishi va munosabati.

Tarixiy-ekspressiv so‘zlar. Ekspressiv so‘zlarning tarixiy ildizini bilish. So‘zlarning semantik intensivligi va emotsional ta’sirini tahlil qilish. Tarixiy-ekspressiv so‘zlar turlari. So‘zlarning emotsional va stilistik xususiyatlari. Ziddiyat va semantik o‘zgarishlar.

So‘z birikmasi va gap. Gap bo‘laklari, turlari. So‘z birikmalari va gap bo‘laklarini tahlil qilish. Hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi elementlarni aniqlash. So‘z birikmasining turlari va tuzilishi. Gap bo‘laklari: uyushiq, ajratilgan, kiritma. Bog‘lanish va ma’noviy omillar.

Sodda, murakkablashgan gaplar va qo‘shma gaplar. Gap turlarini tushunish. Kesim, ega, to‘ldiruvchi va ularning uyushiq-sodda tuzilishini tahlil qilish. Sodda gap va tarkibiy qismlari. Murakkablashgan gap va qo‘shma gaplar. Bog‘lovchilar va sintaktik uyushmalar. Qo‘shma gapning qismlari va funksiyalari.

Adabiy til rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog‘liqligi. Adabiy til turlari. Uslublar taraqqiyoti. Adabiy tilning shakllanishi va uslubiy rivojlanishini bilish. Ijtimoiy omillar va adabiy jarayonlarni tahlil qilish. Adabiy til turlari va shakllari. Uslublar va ularning taraqqiyoti. Ijtimoiy-historik voqealar bilan bog‘liqlik.

O‘zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi. O‘zbek xalqining tarixi va tilining nomlanishini tushuntirish. O‘zbek etnonimi va tarixi. Turk so‘zi, sort atamasi va ularning tarixiy manbalari. Chig‘atoy tili va adabiy tilning shakllanishi. “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘ati-t-turk” kabi manbalar.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tizimdagi tillarning o‘rni. O‘zbek tilining tarixiy ildizlari. Tilning tarixiy ildizlari va boshqa tillardan o‘zlashgan qatlamni bilish. Fonetika, morfologiya va leksika orqali tarixiy izlanishlar olib borish. O‘zbek tilining qadimgi turkiy ildizlari. Forsiy va arabiy so‘zlar ta’siri. Chig‘atoy tili va eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi.

O‘zbek tilining qadimgi turkiy va eski turkiy adabiy til davri. Qadimgi turkiy tilning morfologik va fonetik xususiyatlarini tushuntirish. Adabiy matnlar va yozuvlar orqali tilni tahlil qilish. Qadimgi turkiy til manbalari. Fonetik va leksik xususiyatlar. Morfologik va sintaktik tuzilish. Eski o‘zbek adabiy tiliga o‘tish jarayoni.

Eski o‘zbek adabiy tili manbalari va ularning til xususiyatlari. Eski o‘zbek manbalaridagi til xususiyatlarini tushuntirish. Matnlarni tahlil qilib adabiy tilning shakllanishini o‘rganish. Bobur, Muhammad Solih asarlari. Devon va risolalar til xususiyatlari. Fonetik, morfologik va leksik tahlil.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko‘targan siymo. Navoiy, Bobur va Muhammad Solih asarlarining til xususiyatlari. Mumtoz adabiy tilning shakllanishi. Asarlarning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish. Alisher Navoiy tilining xususiyatlari. Bobur va Muhammad Solih asarlarining tili. Mumtoz til va adabiy an’analar.

XVII asr – XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiy tili. Davr adabiy tilining xususiyatlari.Matnlar va adabiy manbalar orqali tarixiy tahlil. XVII–XIX asr adabiy tilining morfologik va leksik xususiyatlari. Matnlar va qo‘lyozmalar tahlili. Tarixiy-ijtimoiy kontekst bilan bog‘liqlik.

Adabiy tilning takomilida lug‘at va grammatik asarlarning o‘rni. Adabiy tilning XX asrdan keyingi takomili. Lug‘at va grammatik manbalarning rivojlanishi. XX asrdan keyingi adabiy til takomili. Tarixiy va ijtimoiy kontekst.

Qadimgi turkiy obidalar, ularning topilishi va o‘qilishi. O‘rxun, uyg‘ur yozuvi va ularning grafik xususiyatlari. O‘rxun va uyg‘ur yozuvlari. Grafik xususiyatlar. Fonetik va leksik tahlil.

Qadimgi turkiy til fonetikasi va leksikasi. Fonemalar va ularning tarixiy variantlari. Leksik birliklar va tarixiy o‘zgarishlar. Kombinator va pozitsion jarayonlar.

Qadimgi turkiy til morfologiyasi va sintaksisi. Ot, fe’l va boshqa so‘z turkumlarining morfologiyasi. Sintaktik birliklar va gap turlari. Qadimgi turkiy tilning grammatik o‘ziga xosligi.

Qadimgi turkiy til sintaksisi. Sintaktik birliklar. Gap tarkibi va bo‘laklari. Bog‘lanish va uyushiq strukturalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti . 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda parpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. SH.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori
7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M.,

Qodirova X.B. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -Toshkent. 2010. -404 b.
8. Nurmonov A., SHahobiddinova SH., Iskandarova SH., Nabieva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2001.
9. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent. 1992.
10. Zamonaviy o‘zbek tili (mualliflar jamoasi). –Toshkent: Mumtoz so`z, 2008. - 467
11. O‘zbek tili grammatikasi. -Toshkent, 1975. I tom.
12. Rahmatillayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. -Toshkent. 2006. 464 b.
13. G‘ulomov A., Tixonov A.N., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. - Toshkent. 1977.
14. Hojiev A. O‘zbek tilining morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. 256 b.
15. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
16. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, Ўқитувчи, 1976, -664 б.
17. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 1-5-жилд.-Т., Фан, 1978-1982.
18. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2–jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
19. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. 2003
20. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). –T.: Yangi asr, 2006.
21. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. -Тошкент, Фан, 2006. -240 б
22. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 2017.
23. Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi. (XVII-XIX asr I yarmi). O`quv qo`llanma.-T., Fan, 2006.- 272bet
24. Sh. Sirojiddinov, D Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik. T.: “Akademnashr”-2020.
25. Natan Mallayev.Alisher Navoiy va xalq og’zaki ijodiyoti . G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
26. D.Salohiy. Navoiyning she’r uslubi masalalari. “Fan” nashriyoti, 2005. ISBN — 5-648-03138-6
27. B.Hasanov.Navoiy asarlari uchun qisqacha lug’at. “Fan” nashriyoti, 1993.ISBN — 5-648-01853-3
28. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: “O‘qituvchi”, 1992.
29. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: 1994.
30. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
31. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2012.
32. Husanboyeva Q., Niyoz metova R.. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma: «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-yil. - 352 bet.
33. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9-sinflar). – Toshkent, 2016.
34. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2022.
35. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A.Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b
36. G‘ulomov Y., Rasulov I., Rustamov H., Mirzaahmedov B. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik (I.Mirzayev tomonidan tabdil qilingan). – T.: VNESHINVESTPROM, 2019. – 320 b.
37. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1996.
38. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Toshkent: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.
39. Enazarov T., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G‘. O‘zbek shevashunosligi – Toshkent: Universitet, 2012. – B.184.
40. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Navro‘z, 2016. – B. 150.

Internet resurslari:

1. http:// www.lingvist.tu
2. http:// www.til.sk.uz
3. http:// www.ziyouz.com
4. http://www.krugosvet.ru/ articles/82/1008254/print.htm;
5. www.jstor.org/stable/4167399//
6. http://www.ling.ed.ac.uk/linguist/
7. www.jstor.org/stable/4167399 //
8. wikipedia.org/wiki//
9. http://dshinin.ru/SC/Russian/www.hi-edu.ru/x-books-free/xboo…

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining ta'lim yo'nalishi bo'yicha umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovini

BAHOLASH MEZONLARI*

Sinov topshirish shakli	Yozma
Savollar uchun ajratilgan vaqt	Yozma ishga -150 daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	Har bir savolga 20 ball
Maksimal ball	100
O'tish bali	60
Sinov topshirish shakli	Test
Sinov uchun ajratilgan vaqt	120-daqiqa
Savollar soni	50
Har savolga ajratilgan maksimal ball	2
Maksimal ball	100
O'tish ball	60
Sinov topshirish shakli	Og'izaki
Sinov uchun ajratilgan vaqt	30-daqiqa
Savollar soni	5
Har savolga ajratilgan maksimal ball	10
Maksimal ball	100
O'tish ball	60